<b>Ibodullayev Abror Axrorovich</b> , dotsent, <b>Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li</b> , <b>Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li</b> , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health.....	1100
<b>Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli</b> , <b>Avazov Ilhom Ravshanovich</b>	



Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан.....	1104
<b>Turaeva Adiba Ikramovna</b> , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices .....	1109
<b>Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova</b> , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri.....	1117
<b>Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich</b> , PhD	
Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
<b>Kalandarova Nargiza Narimanovna</b> , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
<b>Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlari .....	1135
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
<b>Xolikov Sarvar Xayitbayevich</b>	

# MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



# HUDUDLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY JIHATLARI

**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi**

Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti



**Annotatsiya:** Jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan inqirozli jarayonlarni barataraf etish, iqtisodiy faoliyka yetaklovchi hamda hududlardagi qator muammolarni barham topishiga imkon beruvchi omil bu investitsiyalardir. Maqolada hudud moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning xorij va mahalliy iqtisodchi olimlarining ilmiy nazariyalari, yondashuvlariga bag'ishlangan. Shuningdek, olib borilgan ilmiy tadqiqatlardan kelib chiqib mualliflik yondashuvlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** hudud, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, investitsiya siyosati, investitsion faoliyik, qo'shilgan qiymat, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik.

**Abstract:** Investments are the factor that helps eliminate the crisis processes occurring in the global economy, leads to economic activity and solves a number of problems in the regions. The article discusses scientific theories and approaches of foreign and domestic economists to increase investment attractiveness in ensuring the financial stability of the region. The author's approaches based on scientific research are also presented.

**Key words:** territory, direct investment, investment policy, investment activity, added value, investment climate, investment attractiveness.

**Аннотация:** Инвестиции являются тем фактором, который помогает устраниить кризисные процессы, происходящие в мировой экономике, приводит к экономической активности и решает ряд проблем в регионах. В статье рассматриваются научные теории и подходы зарубежных и отечественных экономистов по повышению инвестиционной привлекательности в обеспечении финансовой стабильности региона. Также приведены авторские подходы, основанные на проведенных научных исследованиях.

**Ключевые слова:** территория, прямые инвестиции, инвестиционная политика, инвестиционная деятельность, добавленная стоимость, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность.

## KIRISH

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish va mahalliy mineral-xom-ashyo resurslari bazasida qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish muhim vazifalardan biridir. "Biz iqtisodiyotimizga sarmoya kiritishga intiladigan investorlar uchun hududlar va tarmoqlar bo'yicha investitsiya loyihalarini puxta shakllantira olsak, bu masalada ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu borada maxsus iqtisodiy zonalarda biznes subyektlarini joylashtirish, ularga imtiyoz va preferensiylar berishni tashkili va huquqiy jihatdan taribga solish lozim" [1]. Bundan kelib chiqqan holda, jumladan, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati samaradorligini oshirish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinnari yaratish asosida hudud moliyaviy imkoniyatlarini erkin iqtisodiy zonalar faolligini ta'minlash asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni keng yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun 2030-yilgacha kapital qo'yilmalar hajmlarini – 3,1 baravar, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni – 7,0 baravar ko'paytirish talab etiladi. Bunda mintaqalarning moddiy-texnik va moliyaviy bazasini mustahkamlash, sermahsul ish o'rinnari tashkil etilishini va mahalliy aholi daromadlari oshishini ta'minlaydigan infratuzilmaviy, ishlab chiqarish va ijtimoiy loyihalarini amalga oshirish uchun mahalliy resurslar va imkoniyatlarni jadal safarbar qilish yo'li bilan mintaqaviy omildan samarali foydalanishga urg'u beriladi. Bunda sanoat ishlab chiqarishlarini samarali rivojlantirish, joylashtirish xususiy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun iqtisodiy- ixtisoslashtirilgan zonalar, tarmoq klasterlari, kichik sanoat zonalari, innovation markazlar, texnoparklarning afzalliklari ustunligidan foydalanishga alohida ahamiyat beriladi [2].



O'zbekistonda keyingi yillarda hududlar sanoati rivojlanishiga, bu sohada texnologik va innovations siyosatni amalga oshirishga, xarajatlarni kamaytirish maqsadida yuqori texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, hududlarda tabiiy resurslar yetishmasligi hamda muntazam ravishda ular narxining oshib borishi, sanoat ishlab chiqarishida iste'mol, ijtimoiy va ekologik standartlarning o'zgarishi va murakkablashib borishi bunga misol bo'ladi. Shuningdek, raqobatning kuchayishi, sanoat ishlab chiqarishi samarasining doimiy ravishda oshib borish zaruriyati, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning sifat va texnologik ko'rsatkichlariga talabning qat'ylashuvi tufayli ilmiy texnik taraqqiyotning mahsuli sifatida mehnat unumdarligini oshirish va ishlab chiqarish vositalarini takomillashtirish orqali mahsulot raqobatbardoshligini oshirish zaruriyatga aylanmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha bir qancha xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Mamlakat hududlari investitsiya faoliyati to'g'risida I. A. Blankning fikricha, iqtisodiyot tarmoqlarining investitsiya jozibadorligini baholashning uch asosiy elementi mavjud: iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining istiqbol ko'rsatkichlari, korxonalarning o'rtacha rentabilitik darajasi, hududiy investitsiya risklarini baholash. Mamlakat hududlarining investitsiyaviy jozibadorligini baholashning asosiy elementlariga esa: hududning umumiyligi iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya infratuzilmasi, bozor munosabatlari va tijorat infratuzilmasi darajalari sanaladi.

Shu bilan birga, hududda investitsiya faoliyatini yuritish xavfsizligi holati va hududning demografik holati kiritilgan. Bir guruh MDH iqtisodchi olimlari I. R. Zaripova, V. R. Xafizova, M. A. Verxolaz, N. M. Sabitovalar "hududlarning moliyaviy imkoniyatlari" tushunchasi bilan "mahalliy moliyaviy imkoniyatlar" tushunchasini bir tomonidan, "molivaviy resurslar" va "molivaviy imkoniyatlar" tushunchalarini ikkinchi tomonidan bir xil ma'noda talqin etilishi kuzatilgan<sup>[3]</sup>. Ikkinchi guruh iqtisodchilar esa A. L. Kolomnes, A. I. Novikovalar hududlarning moliyaviy imkoniyati tarkibida yuridik shaxslar, aholi va davlatning molivaviy resurslarini ajratib ko'rsatganlar<sup>[4]</sup>. Hudud molivaviy imkoniyatini baholashning o'ziga xos uslubiyoti to'liq o'rganilmagan.

Bizning fikrimizcha, molivaviy imkoniyatni hududlarga nisbatan talqin etilganda, uning doirasini mahalliy budget daromadlari bazasi bilangina cheklab qo'ymasdan, balki hudud molivaviy resurslarining boshqa elementlarini ham, shu bilan birga, hududga qo'shimcha jalb qilinishi mumkin bo'lgan mablag'larni ham qamrab olishi kerak.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan Sh.Mustafaqulov o'z monografiyasida xorijiy investitsiyalarning mamlakat hududlariga ta'sirini baholab, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini mamlakat milliy iqtisodiyotiga yo'naltirish bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy masalalar ham hal etiladi..., investorlarning qarorlariga nafaqat iqtisodiy naflik, balki ijtimoiy naflik ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi, deya ta'kidlaydi<sup>[5]</sup>.

Tadqiqot ishida keltirilgan nazariy yondashuvlar, ularning asosini tashkil etadigan belgilar investitsiyalarni boshqarishda hududiy investitsion faoliyatlarni amalga oshirishda va tizimli yondashuvni ko'zlagan holda belgilangan vazifalar majmuuni hal etish imkoniyatini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistika va qiyosiy taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida olingan nazariy natijalarning qisqacha tavsifi:

- hudud investitsion muhit jozibadorligi va hududning iqtisodiy salohiyati hamda hududning molivaviy imkoniyatlarining nazariy yondashuvlarini asoslab berish;
- investitsion muhit jozibadorligini oshirishga ta'sir etuvchi omil-larning rolini o'rganish;
- O'zbekistonda hudud investitsion jozibadorligini faoliyatining zamonaviy holati, asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari va samaradorlik darajasini tahsil qilish.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan investitsiyalarning tabiatni va shakllari ham, investitsiya loyihalari samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi va ularni tanlash mezonlari ham o'zgarib bormoqda. Investitsion jarayonlar beqaror, tez o'zgaruvchan muhitda sodir bo'lganligi sababli, noaniqlik va xavfsizlik omillarining ta'siri sezilarli darajada oshib bormoqda. Bunday sharoitda investitsiyalarni boshqarish va investitsiya jarayonlarida yuqori salohiyat talab etiladi. Makro-, mezo- va mikroiqtisodiy darajalarda investitsiya dasturlarini ishlab chiqish, investorlarga kreditlar va kafolatlar berish tartiblarini belgilash, investitsiya faoliyatini axborot-teknik ta'minlash bo'yicha maxsus institutsional tuzilmalarni yaratish zarurati ortib bormoqda.



Har qanday iqtisodiy tizimda (mintaqa, tarmoq va boshqalar) investitsiya faoliyatining asosiy subyektlari buyurtmachi (investitsiyadan foydalanuvchi) va investor hisoblanadi. “Investitsiya jozibadorligi” iqtisodiy mazmunini hisobga olgan holda investitsiya faoliyatini tashkil etishning quyidagi asosiy tamoyillarini ko’rsatish mumkin:


- ixtiyoriy investitsiyalar;
- investitsiya jarayoni ishtirokchilarining huquqlari tengligi;
- barcha investorlar uchun huquqlarning tengligi (faoliyat turlari va mulkchilik shaklidan qat’iy nazar); agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo’lmasa;
- investitsiya xavfsizligi;
- amaldagi qonun hujjatlariga rioxaliga qilgan holda investitsiya jarayoni subyektlarining investitsiya faoliyatiga aralashmasligi;
- investitsiya faoliyati mezonlarini tanlashda mustaqillik;
- investitsiya jarayoni ishtirokchilarining investitsiya faoliyatini amalga oshirishda huquq va manfaatlarini hurmat qilish<sup>[6]</sup>.

Investitsiya faoliyati investorlar tomonidan shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin. Bunda bitim (yoki shartnoma) investitsiya jarayoni subyektlari o’tasidagi munosabatlarni belgilaydi. Investitsiya manbalari sifatida xo’jalik yurituvchi subyektlarning o’z mablag’lari, jalg qilingan moliyaviy resurslar, qarz mablag’lari, budget va budgetdan tashqari jamg’armalarning investitsion mablag’lari, xorijiy investitsiyalar va boshqalar kiradi<sup>[7]</sup>.

Mamlakat hududlarida va davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo’lgan, jumladan, sanoat majmuasini o’z ichiga olgan tarmoqlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish davlat va hudud organlarining qat’iy nazorati ostida amalga oshirilishi kerak bo’ladi. Investitsiya faoliyati subyektlari, shuningdek, hududlarni har tomonlama ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy takomillashtirish maqsadida investitsiya siyosatini ishlab chiqadi. Bizningcha, investitsiyalar hududiy sanoat komplekslarini yanada iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Ularga investitsiya jozibadorligini shakllantirish va bu jarayonni boshqarish orqali hozirgi bosqichda investitsiyalarni jalg qilish va ularning iqtisodiy rivojlanishini Jadallashtirish mumkin. Shuning uchun investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy va amaliy masalalari so’nggi yillarda mamlakatimiz milliy iqtisodiyotida ancha dolzarb ahamiyatga ega bo’lib bormoqda.

Iqtisodchi olim va ekspertlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, ular tomonidan hudud, alohida tarmoqlar, iqtisodiy faoliyat sohalarining investitsion jozibadorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish bo’yicha turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, investitsion jozibadorlik va investitsiya muhitini kabi tushunchalarga bo’lgan turli ta’riflar va ularning o’zaro bog’liqligi to’g’risida munozaralar keltirilgan. Jumladan, MDH iqtisodchi olimlaridan A. Kretinin “hududning investitsion jozibadorligi”, deb nomlangan tadqiqotida “investitsiya muhitini ko’p jihatdan investorlarning ma’lum bir davlatda investitsiya faoliyatini amalga oshirishga yaratilgan qulayliklarga hamda investitsiya muhitini ifodalovchi ko’rsatkich natijalarga, investitsiyalarga nisbatan u yoki bu investitsiya obyektiga nisbatan yaratilgan imtiyoz va qulayliklarni aks ettiradi<sup>[8]</sup>. Shuningdek, investitsion jozibadorlik va investitsiya muhitini biri biriga o’xshash tushuncha ekanligini hamda ularning tarkibidagi ikkita muhim birlikni, ya’ni investitsiya salohiyati va investitsiya xavfi(riski)ga alohida e’tibor qaratish lozimligini ko’rsatib o’tishadi.

Fikrimizcha, bunday yondashuvga qo’shilish ancha qiyin. Chunki, investitsion jozibadorlik investitsiya muhitining muhim xususiyatlari va tarkibiy qismlaridan biri bo’lib hisoblanadi. Investitsion jozibadorlik investitsiya obyektini muayyan investor tomonidan baholashni nazarda tutadi hamda investitsiya muhitini esa obyektiv xususiyatga ega va bunday yondashuvni inkor etadi. Binobarin, investitsiya jozibadorligini baholash investorlarning toifalari, maqsadlari va imkoniyatlariga bog’liq bo’lib, investitsiya muhitini investitsiya faoliyati yoki jarayonining turli subyektlari uchun doimiy qiymat hisoblanadi. Investitsion jozibadorlikni baholash, investitsiya obyektlari va maqsadlari, obyektlar va maqsadlarning xilma-xilligi haqidagi ko’plab turli xil qarashlar hamda ularni aniqlash-tirishni talab qiladi va investitsiya jozibadorligini batafsil ifodalash imkoniyatini beradi. Bizning fikrimizcha, investitsion jozibadorlikning iqtisodiy mazmuniga bo’lgan eng to’liq ta’rifi MDH iqtisodchi olimi Yu. P. Ryabov tomonidan berilgan. U investitsion jozibadorlikni investitsiya obyekti sifatida qarab chiqadi va quyidagi turlarini alohida ko’rsatib beradi: transmilliy, milliy, mintaqaviy va korxona darajasida. Qolaversa, ularning har birini milliy iqtisodiyot bilan bog’lagan holda, tarmoqlar, individual ishlab chiqarish va boshqa faoliyat turlari bilan bog’liqligini o’rganish, taxliol qilish mumkinligini ko’rsatib o’tadi<sup>[9]</sup>. Shuningdek, investitsion jozibadorlikning mutloq va qiyosiy turlarini ham alohida o’rganish kerak. Mutloq investitsion jozibadorlik biron-bir investitsiya obyektini, qiyosiy jozibadorlik esa qiyosiy taqqoslanadigan boshqa obyektlarga nisbatan investitsiya obyektini xarakterlaydi (1-rasm).



1-rasm: Investitsion jozibadorlikning ifodalanishi

Ba'zi mualliflar makro va mikro darajadagi investitsion jozibadorlikni ham alohida ko'rsatib o'tadilar. Makroiqtisodiy darajadagi investitsion jozibadorlik davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar, shu jumladan, xorijiy investorlar uchun foydali investitsiyalar uchun yaratib berilayotgan bir qator qulayliklar bilan belgilanadi. Makro darajada samarali investitsiyalash shartlari quyidagi omillar ta'siriga bog'liq:


- siyosiy tizimning barqarorligi va uning samarali prognozlash;
- milliy iqtisodiyotning holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar tendensiyasi (inflyatsiya darajasi, yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, eng muhim mahsulot turlarini ishlab chiqarish hajmlari, budget taqchilligi va boshqalar);
- hudud va iqtisodiyot tarmoqlarining innovations va investitsion samaradorligining davlat tomonidan tartibga solish tizimi darajasi;
- davlatning soliq siyosati;
- mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, aholi turmush va farovonlik darajasi;
- investitsiya xatarlari darajasi va iqtisodiy muhitning noaniqligi va boshqalar<sup>[10]</sup>.

Bir qator mualliflar investitsion jozibadorlik yordamida ma'lum bir loyiha yoki dasturga sarmoya kiritishning maqsadga muvofiqmi yoki yo'qligini tahlillar orqali baholash, shuningdek, muqobil resurslarni taqsimlash imkoniyatlari va muqobil variantlari samaradorligiga bog'liq deb ko'rsatishadi<sup>[11]</sup>. Boshqa bir xorijilik iqtisodchi olimlar I. I. Roizman va I. V. Grishinalar investitsiya jozibadorligini asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar uchun potensial samarali talabning ko'rsatkichi sifatida izohlaydi<sup>[12]</sup>. Yana bir iqtisodchi olimlardan S. M. Markov investitsion jozibadorlikni ichki muhit holati sifatida korxona tuzilmasi, xodimlari, texnologiyalarini ko'rsatsa va investitsiyalashni esa tashqi muhitning muhim omili sifatida ko'rsatadi. Ichki muhitning xususiyatlari va samaradorligi investitsion jozibadorlikni belgilaydi, tashqi muhitning tarkibiy qismlari (tabiiy, ekologik, ijtimoiy, ishlab chiqarish natijalari va boshqalar) bo'lib hisoblanadi<sup>[13]</sup>. I. A. Blank nuqtayi nazaridan esa investitsion jozibadorlik investitsiya obyektining faoliyat hayot sikli aylanishiga bog'liq. Uning fikricha, "o'sish" va "yetuklik" bosqichlarida korxonalar eng yuqori investitsion jozibadorlikka ega bo'ladi<sup>[14]</sup>. Agar biz uning yondashuviga qo'shiladigan bo'lsak, investitsiya jozibadorligi ma'lum bir obyektning investitsiya faoliyati sifatining umumiylar xarakteristikasi bo'lib, aniq potensial investor tomonidan baholanadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shuning uchun investitsiya jozibadorligini baholash jarayoni investor tomonidan investitsiya obyektini subyektiv baholanashidir. Tadqiqotchilar Yu. P. Ryabov va E. P. Ryabovalar investitsiya jozibadorligini ko'p parametrlri ko'rsatkichlar ko'ra obyektning murakkab ijtimoiy-iqtisodiy xarakteristikasi sifatida tushunadi, bu investorga investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini baholash imkoniyatini beradi<sup>[15]</sup>. Fikrimizcha, investitsion jozibadorlik ma'lum bir mamlakat, tarmoq, hudud, xo'jalik yurituvchi subyekt doirasida investitsiyalarga samarali talabni belgilovchi dastlabki mablag'lar va imkoniyatlar yig'indisi sifatida ma'lum bir tasnifga ega bo'lgan ko'rsatkichlar tizimi bilan ifodalash mumkin. Mamlakat va hududlarning investitsion jozibadorligini o'rganuvchi olimlar orasida S. M. Markovning fikrlari diqqatga sazovordir. U iqtisodchi olim L. B. Samoilovlar tomonidan investitsion jozibadorlikni mamlakatda (hududda) maqsadga muvofiq investitsiyalar uchun vaziyat qanchalik qulay ekanligini belgilaydi va hududning asosiy kapitaliga moliyaviy resurslarni jalb qilish intensivligining ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi<sup>[16]</sup>.

A. P. Gradov va boshqa bir qator mualliflar hududning investitsion jozibadorligini uning investitsion salohiyati va investitsiya riski deb tushunadilar, bu esa o'z navbatida bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, hududga asosiy kapitalni jalb qilish uchun kapital qo'yilmalarning mumkin bo'lgan hajmini belgilaydi<sup>[17]</sup>. Iqtisodchi olimlardan A. Mashkin investitsiya jozibadorligini investorning ma'lum bir investitsiya obyektnini, ya'ni individual loyihasini, umuman korxonani, korporatsiyani, shaharni, viloyatni va hokazolarni tanlashda afzalliklarini belgilovchi investitsiya shartlari majmui sifatida tushunadi.



U ushbu obyektlarning barchasi uchun umumiylashtirish xususiyatni aniqlaydi, ya'ni o'z budjeti va boshqaruv tizimiga ega bo'lishi lozim<sup>[18]</sup>. Biz uning nuqtai-nazarini qo'llab-quvvatlaymiz. Barcha darajadagi har bir obyekt va uning investitsion jozibadorligi, ayniqsa birlashtirilganda o'ziga xos muhim xususiyatlarga ega ekanligiga ishonamiz. Lekin yuqorida aytib o'tilganidek, investitsion jozibadorlikni nafaqat yirik obyektlar (mamlakat, hudud, sanoat va boshqalar) darajasida, balki mikro darajada ham ko'rib chiqish mumkin. Shunday qilib, masalan, E. I. Krilov va V. M. Vlasovlar investitsion jozibadorlikni mustaqil iqtisodiy kategoriya deb hisoblaydilar. Shuningdek, rent-abellik, aksiyalar bahosi va to'lana digan dividendlar darajasi, korxonalarning moliyaviy ahvolining barqarorligi bilan tavsiflanadi<sup>[19]</sup>. Investitsiya jozibadorligini shakllan-tirishga korxonalarning strategik rivojlanish maqsadlari, ularning mahsulotlarining raqobatbardoshlik darajasi va iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirish qobiliyati, shuningdek, innovatsion faoliyat darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu komponentlarning barchasi har bir investitsiya loyihasining jozibadorlik darajasini belgilaydi, ularni amalga oshirish uchun mablag'larni joylashtirishning pirovard nuqtasi korxonalar hisoblanadi. Shunday qilib, investitsiya jozibadorligining mohiyati va mazmuniga oid turli yondashuvlarni tahlil qilish hududiy investitsion jozibadorlikni shakllantirish xususiyatlari, baholash mezoni va mexanizmini o'rganishga izchil yondashish imkoniyatini beradi. Shubha yo'qki, qator omillar ta'sirida har bir hudud va o'z hududida faoliyat yuritayotgan har bir iqtisodiyot tarmoq majmuasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, strategik investor, agar uning rivojlanishiga keng ko'lamli inqiroz tahdid soladigan bo'lsa, biron-bir hudud yoki sanoatga sarmoya kiritishdan manfaatdor bo'lmaydi. Qolaversa, loyiha muayyan hudud yoki tarmoqda qanchalik moliyaviy foydali bo'lishidan qat'iy nazar, mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy beqarorlik xavfi kapitalni, ayniqsa, xorijiy kapitalni zarur miqdorda jalb etishga to'sqinlik qilishi mumkin<sup>[20]</sup>.



**2-rasm:** Hududning investitsion jozibadorligi elementlarining o'zaro ta'sir etish mexanizmi

Bozor munosabatlardagi investitsiya faoliyati barcha iqtisodiy jarayonlarda fundamental ahamiyatga ega ekan, uning xususiyatlarini hudud miqyosida qarab chiqish lozim. Mintaqaviy iqtisodiyot investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi quyidagi xususiyatlarga ega: hududlarning iqtisodiy mustaqilligi ham ma'lum chegaralarga ega, chunki u milliy iqtisodiyotning quyi tizimi bo'lib, uning alohida qismi sifatida qaralishi mumkin emas. Tabiiy-



iqlim sharoitlari va geologik-geografik omillar asosan hududiy iqtisodiyotni oldindan belgilab beradi. Turli tarmoqlar va ishlab chiqarishlar mavjudligi sababli, hududiy iqtisodiyot qoida tariqasida, o'zini-o'zi ta'minlaydigan tuzilmaga ega emas, bu ko'plab hududlarning muayyan faoliyat sohalarida tor ixtisoslashuvini belgilaydi [21]. "Hududning investitsion jozibadorligi" tushunchasi juda keng va murakkab mazmunga ega. Aynan, uning tadqiqotlari ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimiz va xorij olimlarining katta e'tiboriga sazovor bo'limoqda. Biroq, iqtisodiy adabiyotlarda bu konsepsiya uning mohiyati va iqtisodiy mazmunini aniqlashning yagona yondashuvi bo'yicha haligacha konsensus mavjud emas. Bundan tashqari, qo'shimcha tadqiqotlar mintaqaning investitsion jozibadorligini boshqarishning oqilona mexanizmini shakllantirish, shuningdek, uning tarmoqlarini rivojlantirishga investitsiya kiritishning maqsadga muvofiqligini baholashni talab qiladi.

Tadqiqot jarayonida biz mintaqaga kabi murakkab obyektni tizim sifatida ko'rib chiqamiz, bu haqda to'liqroq va batafsilroq tushunchaga ega bo'lish va uning elementlari o'rtaisdagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga harakat qilamiz. Tizimli yondashuvning o'ziga xosligi umumiyligi ilmiy metodologik tamoyillarga asoslanib, obyektni tizim sifatida ko'rib chiqishga imkoniyatini berishi bilan belgilanadi. Tizimli yondashuv nuqtai nazaridan hududning investitsion jozibadorligi elementlarining o'zaro ta'sir mexanizmi 2-rasmda ko'rsatilgan.

Investitsion jozibadorlikni boshqarish jarayonining subyektlari iqtisodiy tizimning asosiy ishtirokchilari investitsiya faoliyatini olib boruvchilar va kiritilgan investitsiya orqali daromadlarni olishga manfaatdor biznes vakillari, davlat va xodimlardir. Hududning investitsion jozibadorligi obyektlari iqtisodiyotning quyi tarmoqlari, hududiy korxonalar, hududiy investitsion loyihalardir. Subyektlar va obyektlar o'rtaida investitsiya jozibadorligini shakllantirish, boshqarish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari va mazmunini belgilaydigan qulay muhitda bir-biri bilan chambarchas uzviy bog'langan. Aynan, qulay shart-sharoitlar, imtiyozlar va boshqa sharoitlar mamlakat investitsion faolligini ham belgilab beradi.

Shunday qilib, hududning investitsion jozibadorligini boshqaruv jarayoni hududning barcha xususiyat va jihatlarini qamrab oladi. Hududning investitsion jozibadorligining asosiy elementlari bo'lib investitsion jozibadorlikka ta'sir etuvchi omillar, investitsiya jarayoni va investitsion daromad bo'lib hisoblanadi.

## XULOSA

Yuqorida aytilanlarni umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, hududning investitsion jozibadorligining iqtisodiy mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, hududiy xususiyatlari va natijada investorning investitsiyalarni muqobil tanlovi afzalliklarini belgilaydigan sanoatning o'ziga xos ishlab chiqarish natijalariga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, olib borilgan ilmiy va nazariy izlanishlardan kelib chiqib, rivojlangan mamlakatlarning amaliy tajribasi, iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash yo'lida hududning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion jozibadorlikni oshirish borasida qabul qilingan qonunlari, ishlab chiqilgan qarorlarini o'rganish, hududlarga maqsadli investitsiya loyihalarini kengroq jalg'etish bo'yicha ishlab chiqilgan usul va uslublarining kerakli jihatlarini Respublikamiz hududlarining iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib tatbiq etish muhim hisoblanadi. To'plangan amaliy tajribalarni hududlarning rivojlanish tendensiyaga muvofiq holda tatbiq etilishi hamda tavakkalchilikni pasaytirishga, mavhumlikni oldi olinishiga, yuqori samaradorlikning ta'minlanishiga olib keladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent, 2018-yil 28-dekabr. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. 2030-yilgacha O'zbekistonni ijtimoiyiqtisodiy rivojlanish Konsepsiysi. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. Зарипова И.Р., Хафизова В.Р. Баланс финансовых ресурсов территорий. 5-изд. Уфа: ГП Принт, 2014, с.86-90 9. Верхолаз М.А. Влияние степени использования экономического потенциала на состояние местных бюджетов. 6-изд. Белград: Искра, 2015, с.24-26 10. Сабитова Н.М. О понятии финансового потенциала региона и методологии его оценки // Финансы, 2016, №2, с.63-65.
4. Коломнец А.Л., Новикова А.И. О соотношении финансового и налогового потенциалов в региональном разрезе. //Налоговый Вестник, 2018, №3, с.-5; 12. Королева Н.В. Бюджетно-налоговая политика – как проявление экономической политики. Региональный аспект: 6-изд. Сыктывкар: Изд. Сыктывкарского Гос. Университета, 2014, с. 101- 106.
5. Sh.I.Mustafakulov, Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Monografiya. –BMA. 2017. 208-b.
6. Астанакулов, О. Т. Т. Ф., Х. С. Т. Ф. Асатуллаев, and С. У. Халиков. "Анализ и оценка эффективности инвестиционных проектов." Халқаро молия ва ҳисоб" илмий-электрон журнали (2018).
7. Абыкаев, Н. Инвестиционный потенциал и экономический рост / Н. Абыкаев // Экономист. – 2000. – № 6. 14 стр.
8. Кретинин, В.А. Инвестиционная привлекательность региона / В.А. Кретинин. – Режим доступа: (<http://www.amr.vladimir.ru/text/kret1.htm>).
9. Рябов, Ю.П. Понятие и виды инвестиционной привлекательности / Ю.П. Рябов, Е.П. Рябова // Современная аграрная экономика: проблемы и решения: сб. науч. трудов. – Ч. 1. – Воронеж, 2006. – С. 220-224.
10. Асатуллаев, Х., Б. Турсунов, and А. Маманазаров. "Корхоналарни ривожлантириш стратегияси." –Маърузалар матни. –224 (2019).



11. Боброва, И.И. Инвестиционная рулетка. Мистика финансовых рисков / И. Боброва, В. Зимин. – М.: Вершина, 2006. – 480 с.
12. Гришина, И. Комплексная оценка инвестиционной привлекательности и инвестиционной активности российских регионов: методика определения и анализ взаимосвязей / И. Гришина, А. Шахназаров, Н. Ройзман // Инвестиции в России. – 2001. – №4. – С.
13. Марков, С.М. Разработка стратегии повышения инвестиционной привлекательности регионального промышленного комплекса: Дис. кан. экон. наук / С.М. Марков. – М.: РГБ, 2003. – Режим доступа: (diss.rsl.ru/diss/03/0666/030666026.pdf)
14. Закшевский, В.Г. Инвестиционная привлекательность сельскохозяйственного предприятия / В.Г. Закшевский, Н.А. Захарова. – Воронеж: ГНУ НИИЭОАПК ЦЧР РФ, 2004. – 178 с.
15. Рябов, Ю.П. Понятие и виды инвестиционной привлекательности / Ю.П. Рябов, Е.П. Рябова // Современная аграрная экономика: проблемы и решения: сб. науч. трудов. – Ч. 1. – Воронеж, 2006. – С. 220-224.
16. Марков, С.М. Разработка стратегии повышения инвестиционной привлекательности регионального промышленного комплекса: Дис. кан. экон. наук / С.М. Марков. – М.: РГБ, 2003. – Режим доступа: (diss.rsl.ru/diss/03/0666/030666026.pdf); Самойлова, Л.Б. Оценка инвестиционного климата региона: теория, методика, практика. – Режим доступа: (conf.rvshu.ru/rus/conf1dochads/\_samoylova.doc).
17. Iqtisodiyotda korxonalar investitsiyaviy faolligini oshirish yo'llari. O Astanakulov, X Asatullayev - Obshestvo i innovatsii, 2021.
18. Машкин, А. Инвестиционная привлекательность региона / А. Машкин. – Режим доступа: (www.consult.ru/text1\_mash.htm).
19. Крылов Э.И. Анализ финансового состояния и инвестиционной привлекательности предприятия: Учеб. пособие / Э.И. Крылов, В.М. Власов.- М.: Финансы и кредит, 2003. – 192 с.
20. Xasanov, R., Asatullayev, X., Suvonqulov, A., & Xakimov, X. (2013). Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-Moliya.
21. Strategic support for accounting for the investment process in the innovation industry. OT Astanakulov, KS Asatullaev, NI Saidaxmedova... – Journal of Advanced Research In Law And Economics, 2019.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatinining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-slonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

